



**FUQAROLARNING IJTIMOYIY HUQUQLARINI TA`MINLASHDA QONUNCHILIKNI  
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**Yo`ldoshev Husniddin G`ayratbek o`gli**

Andijon davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti

Milliy g`oya ma`naviyat asoslari va huquq ta`lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589514>

**ANNOTATSIYA:** So`nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo`yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda O`zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo`yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (keyingi o`rinlarda — BMT) 6 ta asosiy shartnomaci va 4 ta fakultativ protokoliga qo`shilgan bo`lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo`yicha kengashi va shartnomaviy qo`mitalariga muntazam ravishda milliy ma`ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

**Kalit so`zlar:** Ommaviy axborot vositalari (televideniye, kompyuter, Internet, uyali telefon), axborot, davlat, istiqbol, yangilanish, modernizatsiya, tashabbus, yoshlar, parlament, islohotlar

**ОБЪЯВЛЕНИЕ:** В последние годы проводится планомерная работа по укреплению организационно-правовой базы защиты прав человека, имплементации международных стандартов прав человека в национальное законодательство и выполнения международных обязательств, а также активизация сотрудничества с международными организациями по правам человека осуществляется. В настоящее время Республика Узбекистан присоединилась более чем к 80 международным документам по правам человека, в том числе к 6 основным договорам и 4 факультативным протоколам Организации Объединенных Наций (далее - ООН), регулярно представляет национальные доклады в Совет по правам человека и договорные комитеты.

**Ключевые слова:** СМИ (телевидение, компьютер, Интернет, мобильный телефон), информация, государство, перспектива, обновление, модернизация, инициатива, молодежь, парламент, реформы.



Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida qayd etilganidek, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar muhim maqsadga, ya'ni, hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan.

Ushbu prinsip hayotga joriy etilishi tufayli mamlakatimizda xalqchil va demokratik davlat hokimiyati tizimi shakllandi. Sud hokimiyati, jumladan, uning markaziy bo'g'ini – Konstitutsiyaviy sud davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i sifatida qaror topdi. Konstitutsiyaviy sud ayrim normativ-huquqiy hujjatlarning Asosiy qonunimizga mosligini aniqlash, Konstitutsiya va qonunlarning normalariga sharh berish, qonunchilik tashabbusini amalga oshirish vakolatlari vositasida hokimiyat tarmoqlari bo'linishi prinsipini ta'minlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida izchil faoliyat yuritayotir. Bugun mamlakatimizda jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, inson huquqlari,

erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasida keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar ro'y bermoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Prezidentning Xalq va Virtual qabulxonalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi bu borada muhim qadam bo'ldi. Bu chora-tadbirlar "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan insonparvarlik tamoyilini to'la ro'yobga chiqarishda muhim omil bo'lmoqda. O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillarini saylash, o'zini o'zi boshqarish asosida, referendumlar o'tkazish kabi demokratik xuquqiy institutlar orqali qatnashadi. U o'z siyosiy huquklarini kasaba uyushmalariga, [siyosiy partiyalarga](#), boshqa jamoat va ommaviy tashkilotlarda real ishtirok etish yo'li bilan amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun ham «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» va boshqa jahon miqyosida tan olingan xalqaro huquqiy hujjatlardan kelib chiqib, ton Respublikasi Milliy Markazini tuzish to'g'risida» qabul qilingan Farmon ana shu yo'lda qo'yilgan yana bir muhim qadamdir. Ushbu



Farmon inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishning ta'sirchan vositasini barpo etishga, respublika fuqarolarida huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Xuquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi esa huquqiy demokratik davlatning noyob xususiyatidir.

Ayni paytda O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi saksondan ortiq xalqaro hujjat me'yorlarini milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma- bosqich implementatsiya qilish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda

Jamiyatimizda bu borada ro'y berayotgan muhim siyosiy-ijtimoiy yangiliklardan xalqimizni o'z vaqtida xabardor etish maqsadida davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari aholi orasida umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlarini hurmat qilish va ularga rioya etish tamoyillarini ommalashtirishga, shuningdek, fuqarolarning huquqiy axborotdan foydalanishini ta'minlashga keng jalb etilgan. Barcha iqtisodiy va ijtimoiy dasturlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan investitsiya loyihalari yangi ish o'rinlarini yaratish, shuningdek, mehnat migrantlarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi, Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi tashkil etildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy tizimni modernizatsiya etish jarayonlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi alohida o'rin tutmoqda. Huquqiy tizimni, demokratik qadriyatlarni muhofaza qilishda, ularni xalqimiz turmush tarziga singdirishda e'tiborga molik ishlar amalga oshirilayotir. Kelgusida Konstitutsiyaviy sud faoliyatining yanada takomillashtirilishi sudlov jarayonlarining modernizatsiya qilinishi va demokratlashuviga, konstitutsiyaviy odil sudlovning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga, inson huquq va erkinliklarining samarali va o'z vaqtida himoyalashini mustahkamlashga qaratilishi lozim. Konferensiyada Konstitutsiyaviy sudning hokimiyatlar bo'linishi prinsipini tatbiq etish va inson huquqlarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati, konstitutsiyaviy odil sudlovning dolzarb masalalari, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmini yanada takomillashtirish kabi masalalar muhokama qilindi. Xalqaro anjuman yakunlari bo'yicha tegishli tavsiyalar qabul qilindi.



Xulosa sifatida aytish kerakki, yurtimizda kechayotgan ulkan islohotlar va yangilanishlar davrida inson huquqlarini himoya qilish eng ustuvor vazifalardan biriga aylangani O'zbekistonda demokratik islohotlar ortga qaytmas jarayon ekanining yaqqol ifodasidir. Bu borada BMT hamda boshqa xalqaro tuzilmalar bilan faol hamkorlikni yanada kengaytirish esa, albatta, davlatimizning milliy manfaatlariga xizmat qiladi

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat Kodeksi" (155 – modda, terrorizmga qarshi)-1994.
2. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonuni.T.-1998.
3. 4.Karimov I.A. "Vatanimiz baxti va buyuk kelajagi uchun xizmat qilish -bu eng oliy baxt" T.: O'zbekiston.2015
4. 5.Usmonov K. Sodiqov M. Burxonova S. "O'zbekiston tarixi" T.: "Iqtisodiyot va moliya". 2006 yil
5. Меликулов, О. Ж., Кодиров, Н. Д., & Баймурадов, Э. С. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ БАРБАРИСА В ФАРМАКОТЕРАПИИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 911-913.
6. Meliqulov, O. J., Kodirov, N. D., & Baymuradov, E. S. (2022). 4-XLOR-5, 6-DIMETILTENO [2, 3-D] PIRIMIDINNING TO'YINGAN GETEROSIKLIK BIRIKMALAR BILAN REAKSIYASI. Ta'lim fidoyilari, 18(5), 285-288.
7. Meliqulov, O. J., & Baymuradov, E. S. (2022). 2H-4-GIDRAZINIL5, 6-DIMETIL TIENO [2, 3-D] PIRIMIDINNING AROMATIK ALDEGIDLAR BILAN REAKSIYASI. Scienceweb academic papers collection.
8. Боймурадов, Э. С., & Койлиева, М. У. (2022). ФИТОТЕРАПИЯ ПРИ ЛЕЧЕНИИ САХАРНОГО ДИАБЕТА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2).
9. Qodirov, N. D., Qo'Yliyeva, M. U., & Boymurodov, E. S. (2021). DORILAR HAQIDA TUSHUNCHA, FARMAKALOGIK XOSSALARI, SAQLASH UCHUN SHAROIT YARATISH USULLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 580-586.